

Olimpiada topshiriqlari

Tarix 9

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Qadimda qaysi xalq xudolar odamlar orasida yashaydilar deb hisoblashgan?

- A) hindlar B) yunonlar
C) misrliklar D) rimliklar

2. Xitoy imperatorlari saroyida qachon olimlarning oliy yig'inlari tashkil etilgan?

- A) X asr B) XI asr
C) VII asr D) VIII asr

3. VIII asrda yozilgan "Ziroatchilik qonunlari" to'plami kimlarga tegishli?

- A) germanlarga B) franklarga
C) vizantiyaliklarga D) slavyanlarga

4. Tohiriylar davlati tugatilgan yilda qaysi alloma dunyoga kelgan?

- A) Ahmad Farg'oniy B) Al-Xorazmiy
C) Abu Nasr Farobiy D) Abu Rayhon Beruniy

5. Turkiy xalqlarning tili, madaniyati, etnografiyasi va folklorining birinchi tadqiqotchisini toping.

- A) Mahmud Qoshg'ariy B) Ahmad Yugnakiy
C) Yusuf Xos Hojib D) Abu Rayhon Beruniy

6. O'rta asarlarda qaysi shahar charm mollari bilan mashhur bo'lgan?

- A) Samarqand B) Buxoro
C) Eloq D) Shosh

7. XIX asr boshlarida Samarqand baland devor bilan o'ralgan bo'lib, shaharga nechta darvozadan kirilgan?

- A) 12 ta B) 10 ta
C) 8 ta D) 6 ta

8. Rim legionlari Yevropaga keta boshlagach kelt qabila boshliqlari nimalarga e'tibor bera boshladi?

- A) o'zaro urushlarga B) o'zaro aloqalarga
C) hamkorlikka D) pul ishlab chiqarishga

9. Yaponiya qo'shini Koreyaga qachon bostirib kirgan?

- A) 1593-yil B) 1627-yil
C) 1592-yil D) 1637-yil

10. IX asr oxiri - X asr boshida qaysi Rus knyazi Vizantiya bilan manfaatli shartnoma tuzib, rus savdogarlariga Vizantiya bilan bojsiz savdo qilish imkonini yaratadi?

- A) Oleg B) Yaroslav
C) Vladimir D) Rurik

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Angliya burjua inqilobi davri (1640-1688-yillar) bilan bog'liq bo'lmagan atamalarni (tushunchalarni) toping.

- 1) "Uzoq muddatli parlament"; 2) protektor; 3) "Sharafli inqilob"; 4) Respublika; 5) "chartistlar harakati"; 6) "Buyuk ozodlik xartiyasi"; 7) imperiya
A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 7
C) 4, 5, 6 D) 5, 6, 7

12. Buxoroda ashtarxoniylar hukmronligi davrida qaysi omillar natijasida markaziy hokimiyat zaiflashgan?

- 1) Qo'qon xonligi bilan bo'lib o'tgan urushdagi mag'lubiyat; 2) devonlar orqali boshqaruv tizimining barbod bo'lishi; 3) taxtning otadan bolaga o'tmaganligi; 4) viloyatlarda hokimiyat viloyat hokimlari qo'lida to'planishi.
A) 1, 4 B) 2, 4
C) 2, 3 D) 1, 3

13. 1830-yilda Parij shahrida boshlangan inqilobning maqsadi nima edi?

- A) respublika tuzumini o'rnatish
B) cheklangan monarxiya tuzumi o'rnatish
C) imperiyani qayta tiklash
D) ishchilarga saylov huquqi berish

14. Dastlabki globusni mil. avv. II asrda qaysi olim yaratgan?

- A) Aristotel B) Poliyen
C) Krates D) Sitrabon

15. Dastlabki muzeylar qayerlarda tashkil etilgan?

- A) ibodatxonalarda B) bozorlarda
C) zodagonlar uylarida D) qirol qasrlarida

16. "Ulug'bek jahon ilm-fani taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos hissi bilan tirikligidayoq o'ziga haykal o'rnatib ketgan buyuk alloma edi." degan fikrlar kimga tegishli?

- A) Volter B) Bo'riboy Ahmedov
C) Maqsud Shayxzoda D) Qozizoda Rumiy

17. Angl-saks qirolliklaridagi qaysi sabab daniyalik istilochilarni qaytarish imkonini bermagan?

- A) ichki nizolar B) tashqi qo'shinning inqirozi
C) o'zaro boshboshdoqlik D) qo'shinning kuchsizligi

Olimpiada topshiriqlari

Tarix 9

18. Qo‘qon xonligi va Rossiya savdo yo‘li qaysi hukmdor davrida ochilgan?

- A) Abdulkarimbiy B) Norbo‘tabiy
C) Erdona D) Olimxon

19. 1409-yil bahorida Amir Xudoydot qayerda sodir bo‘lgan jangda Xalil Sulton qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratadi?

- A) Damashq yaqinida Zarafshon daryosi bo‘yida
B) Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi bo‘yida
C) Bag‘dod yaqinida Zarafshon daryosi bo‘yida
D) Qohira yaqinida Zarafshon daryosi bo‘yida

20. Yunonlar forslarga qarshi qayerda pistirma qo‘yishgan?

- A) Plateya shahri yaqinida B) Attika sohilida
C) Fermopil dasarida D) Gelespont
bo‘g‘ozida

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Sulton Husayn Xurosonning hokimi sifatida Hirotga kirib borishi natijasida ...

- A) Temuriylar saltanati yana yagona davlatga birlashadi
B) mahalliy kuchlarning mustaqilikka intilishini kuchaytiradi
C) Movarounnahr va Turkistonni kuchayishiga olib keladi
D) Temuriylar saltanati yana ikki mustaqil qismga bo‘linib ketadi

22. Quyidagi qaysi fan ilk o‘rta asrlarda Yevropa maktablarida o‘rgatilgan “yetti erkin san’at”ning kvadrium bosqichida o‘qitilmagan?

- A) arifmetika B) astronomiya
C) musiqa D) grammatika

23. Temza daryosi ustiga qurilgan Tauer ko‘prigining muhandisini toping.

- A) J. Tomas B) J. Uatt
C) G. Jons D) P. Marten

24. XIX asr o‘rtalarida Buxoro amirligidagi qaysi shaharda porox tayyorlangan?

- A) Qarshi shahrida B) Samarqand shahrida
C) Buxoro shahrida D) ushbu davrda qurol-yarog‘ Rossiyadan olib kelingan

25. Ubaydullaxon safaviylarga qarshi kurashda o‘zining ma’naviy ilhomchisi deb bilgan Mir Arab taxallusi bilan mashhur bo‘lgan din peshvosi berilgan to‘g‘ri javobni toping.

- A) Sayid ibn Javhariy B) Abdulla Sabroniy
C) Ahmad Ma’sudiy D) Nasr Samarqandiy

26. “Yosh Italiya” jamiyatiga kim rahbarlik qilgan?

- A) K. Kavur B) J. Madzini
C) J. Garribaldi D) V. Emmanuel

27. Venetsiya viloyati Italiya qirolligiga qo‘shib olingunicha qaysi davlat tarkibida bo‘lgan?

- A) Avstriya B) Fransiya
C) Angliya D) Turkiya

28. Qo‘qon xonligida “yovar” qanday harbiy mansab bo‘lgan?

- A) artilleriya qo‘mondoni
B) 500 nafardan iborat harbiy qo‘shin qo‘mondoni
C) amiri lashkar maxsus bo‘linmasi boshlig‘i
D) bunday harbiy mansab bo‘lmagan

29. Temuriylar davrida qaysi shaharda 36 ta madrasa faoliyat yuritgan?

- A) Samarqand B) Hirot
C) Toshkent D) Buxoro

30. Qaysi asarda dunyoning yaratilishidan to 1523-yilgacha bo‘lgan O‘rta Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan?

- A) “Ravzat us-safo” B) “Shajarayi turk”
C) “Habib us-siyar” D) “Firdavs ul-iqbol”